



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TA'JIRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamroqul Iloxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	



“YANGI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O‘ZGARISHLARNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Amirov Otabek Xudoyberdi o‘g‘li
Hamkorbank ATB universal bank xizmatlari
ofisi iste‘mol krediti menejeri
E-mail: amirovotabek1999@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari va ularning samaradorligi kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda YalM hajmini 240 milliard AQSH dollariga yetkazish, iqtisodiyotni raqamlashtirish (IT-HUB), “yashil” energetikaga o‘tish hamda investitsiya siyosatini modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xususiy sektor ulushini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi roli ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston — 2030, iqtisodiy islohotlar, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, investitsiya, YalM, barqaror rivojlanish, xususiy sektor, innovatsiyalar.

Аннотация: В данной статье проводится комплексный анализ приоритетных направлений и эффективности экономических реформ, реализуемых в рамках стратегии “Узбекистан – 2030”. В исследовании рассматриваются вопросы доведения объема ВВП до 240 миллиардов долларов, цифровизации экономики (IT-HUB), перехода к «зеленой» энергетике и модернизации инвестиционной политики. Также научно обосновывается роль развития частного сектора, сокращения бедности и развития человеческого капитала в обеспечении макроэкономической стабильности.

Ключевые слова: Узбекистан – 2030, экономические реформы, цифровая экономика, зеленая экономика, инвестиции, ВВП, устойчивое развитие, частный сектор, инновации.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the priority areas and effectiveness of economic reforms implemented within the framework of the “Uzbekistan – 2030” strategy. The study examines reaching the GDP target of 240 billion USD, the digitalization of the economy (IT-HUB), the transition to “green” energy, and the modernization of investment policy. Furthermore, the role of private sector growth, poverty reduction, and human capital development in ensuring macroeconomic stability is scientifically substantiated.

Keywords: Uzbekistan – 2030, economic reforms, digital economy, green economy, investment, GDP, sustainable development, private sector, innovations.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida, ya‘ni XXI asr — texnologiyalar asrida, har bir sohada yangi marralarni zabt etish juda muhim va ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston ham rivojlangan davlatlar singari istiqbolli va iqtisodiy hayotni barpo etish maqsadida turli xil chora-tadbirlar ko‘rmoqda. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, yangi islohotlarni amalga oshirish uchun **“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi** mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab beruvchi, kelgusi 2030-yilgacha rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim konseptual hujjatdir. Ushbu strategiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son¹ Farmoni bilan qayta tasdiqlangan bo‘lib, 5 ta ustuvor yo‘nalish doirasida 100 ta aniq maqsadga erishishni ko‘zda tutadi [2]. Strategiyaning tub mohiyati “Inson qadri uchun” tamoyili asosida aholi farovonligini oshirish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish hamda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashdan iboratdir [3].

1 <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>



O'zbekiston iqtisodiy islohotlarining strategik maqsadi milliy iqtisodiyotni liberallashtirish va zamonaviylashtirish orqali mamlakatni daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga ko'tarishdan iborat. Bu yo'nalishda yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmini 240 milliard AQSH dollariga yetkazish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur maqsadga erishish uchun an'anaviy xom ashyo eksportidan voz kechib, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan sanoatni rivojlantirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish va "yashil" energetikaga o'tish iqtisodiy o'sishning yangi muhim drayverlari etib qaralmoqda [2].

Hozirgi globallashtirish va texnologik inqilob sharoitida mamlakat iqtisodiyotining jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash uchun investitsiya siyosatini tubdan modernizatsiya qilish va xususiy sektor ulushini YalMda sezilarli darajada oshirish talab etiladi. Strategiyada natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tizimiga o'tish, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini joriy etish islohotlar samaradorligini kafolatlovchi asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish va modernizatsiya strategiyalari zamonaviy mahalliy olimlar va mutaxassislar tomonidan keng tadqiq etilib, takliflar taqdim etilmoqda. Raqamli iqtisodiyot bo'yicha Iroda Abrorovna Sanakulova **"Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasining** iqtisodiy samaradorligini tahlil qilib, raqamli soliq tizimlari orqali budjet tushumlarining 45 foizi ta'minlanishini va yashirin iqtisodiyotning qisqarishini ilmiy asoslab bergan. B.B. Berkinov esa milliy strategiyada institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Yashil iqtisodiyot bo'yicha Aziza Baxromjon qizi Xakimjanova O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishidagi sektoral islohotlarni tahlil qilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 15 gigavattga yetkazishning strategik ahamiyatini va yashil moliya mexanizmlarini joriy etish zaruriyatini yoritgan. Strategik boshqaruv va investitsiya bo'yicha professor D.M. Karimova strategiyaning maqsadli ko'rsatkichlarini yangilash va iqtisodiy siyosatni ilmiy ma'lumotlarga tayangan holda yuritish mexanizmlarini tatbiq etgan.

Mayram Asat qizi Ravshanova global integratsiya sharoitida iqtisodiy islohotlarning tarixiy o'rni va bozor mexanizmlariga o'tishning mantiqiy davomiyligini yoritgan. Sardorbek Akhadov Siddiq o'g'li esa strategik islohotlarning institutsional va texnologik jihatlarini kompleks tahlil qilgan [5].

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy hodisalarni o'rganishning tarixiylik, tizimli tahlil, taqqoslash va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Islohotlar samaradorligini baholashda statistik guruhlash va qiyosiy tahlil usullari qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasining rasmiy hisobotlari, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki (World Bank)ning tahliliy ma'lumotlari asosiy kirituvchi manba bo'lib xizmat qildi [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Strategiya doirasidagi iqtisodiy o'zgarishlar quyidagi natijalarni ko'rsatmoqda (1-jadval).

1-jadval. "O'zbekiston-2030" strategiyasidan olingan ma'lumotlar

T/r	Maqsadlar	Maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari	Hozirgi ko'rsatkich (2025)	2026	2027	2028	2029	2030
	2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish	Asosiy ustuvor samaradorlik ko'rsatkichi 167. Yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollardan oshirish	145 mlrd	167 mlrd	182 mlrd	199 ml	218,5 mlrd	240 mlrd
		Asosiy/ustuvor samaradorlik ko'rsatkichi 168. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 5.8 ming dollardan oshirish	3,8 ming	4,3 ming	4,6 ming	5 ming	5,3 ming	5,8 ming



Mazkur jadvalda **“Yangi O‘zbekiston — 2030”** strategiyasi doirasida mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari va ularning 2025–2030-yillar uchun prognoz dinamikasi aks ettirilgan. Xususan, asosiy ustuvor ko‘rsatkichlardan biri sifatida yalpi ichki mahsulot (YalIM) hajmini oshirish belgilangan bo‘lib, 2025-yildagi 145 milliard AQSH dollaridan 2030-yilga borib 240 milliard AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu o‘shish dinamikasi iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan diversifikatsiya qilish, investitsiyalar hajmini kengaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali ta‘minlanishi ko‘zda tutilgan.

Mazkur tadqiqot davomida **“Yangi O‘zbekiston — 2030”** strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta‘siri tahlil qilindi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, strategiya iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab olgan holda uzoq muddatli va barqaror rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qiluvchi muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Strategiyada iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, xususiy mulk daxlsizligini mustahkamlash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Tahlillar natijasida iqtisodiy o‘zgarishlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalasi alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. So‘nggi yillarda tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yukining kamaytirilishi, ro‘yxatdan o‘tish va litsenziyalash tartib-taomillarining soddalashtirilishi, kredit va subsidiyalar ajratish mexanizmlarining kengaytirilishi natijasida yangi korxonalar soni ortib bormoqda. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi bandligini ta‘minlash hamda ichki bozorda raqobat muhitini kuchaytirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari investitsiya siyosati samaradorligi sezilarli darajada oshganini ham ko‘rsatadi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining kuchaytirilishi va davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar ko‘lamining kengayishi iqtisodiyotga kapital oqimini ko‘paytirishga xizmat qilmoqda. Natijada sanoat, energetika, transport, logistika va qurilish tarmoqlarida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Muhokama natijalari sanoatni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish strategiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, energiya tejankor uskunalardan foydalanish va mahalliyashtirish dasturlarini rivojlantirish korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushining ortishi mamlakatning tashqi savdo salohiyatini mustahkamlashga imkon bermoqda.

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar ham iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil sifatida baholandi. Yer munosabatlarini takomillashtirish, fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash, suv resurslaridan samarali foydalanish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni rivojlantirish ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Natijada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortib, eksport imkoniyatlari kengaymoqda.

Xizmatlar sohasi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Elektron davlat xizmatlari, elektron tijorat, raqamli to‘lov tizimlari, sun‘iy intellekt elementlarini iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish natijasida iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi va samaradorligi oshmoqda. Raqamlashtirish boshqaruv xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va korrupsiyaviy omillarni qisqartirishga ham xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ham tahlil qilindi. Pul-kredit siyosatini takomillashtirish, inflyatsiyani bosqichma-bosqich pasaytirish, davlat budjeti intizomini mustahkamlash hamda bank-moliya tizimini isloh qilish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Tijorat banklari faoliyatining transformatsiya qilinishi va moliyaviy xizmatlar qamrovining kengayishi biznes subyektlari hamda aholining moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari iqtisodiy islohotlar hududlar rivojlanishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlari doirasida sanoat zonalar, logistika markazlari, transport infratuzilmasi va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari barpo etilmoqda. Buning natijasida hududlar iqtisodiy faolligi ortib, mahalliy budjetlarning daromad bazasi mustahkamlanmoqda hamda aholi bandligi yaxshilanmoqda.

Olingan natijalar asosida iqtisodiy islohotlar samaradorligini yanada oshirish uchun bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga ajratilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, oliy ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, kichik biznesni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, eksport geografiasini diversifikatsiya qilish hamda **“yashil iqtisodiyot”** tamoyillarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida faol joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, inson kapitaliga investitsiyalarni ko‘paytirish, kasb-hunar ta‘limini mehnat bozori talablariga moslashtirish, zamonaviy raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish va davlat boshqaruvida natijadorlikka



asoslangan boshqaruv usullarini keng qo'llash strategiya maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish ham investitsiya muhiti va biznes ishonchini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari "Yangi O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, xususiyl sektor ulushini kengaytirish, aholi turmush darajasini yaxshilash hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Mazkur strategiyaning izchil amalga oshirilishi iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini jadallashtirish, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash uchun muhim zamin yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, strategiya doirasidagi islohotlarning muvaffaqiyati ularning tizimli, izchil va samarali amalga oshirilishi, davlat, xususiyl sektor hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishiga bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, jadvalda aholi jon boshiga YaIM ko'rsatkichining ham izchil o'sishi prognoz qilingan bo'lib, 2025-yildagi 3,8 ming AQSH dollaridan 2030-yilga borib 5,8 ming AQSH dollariga yetkazish maqsad qilingan. Bu esa mamlakatning "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" toifasiga kirish strategik maqsadi bilan bevosita bog'liqdir.

Keltirilgan prognozlar iqtisodiy o'sishning barqaror va uzluksiz tendensiyasini ko'rsatadi. Ayniqsa, YaIM hajmining har yili o'rtacha 6–7 foiz atrofida o'sishi iqtisodiy islohotlarning izchilligi va samaradorligini ifodalaydi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga daromadning oshishi mamlakatda yashash darajasining yaxshilanishi, ichki talabning kengayishi va iqtisodiy faollikning ortishiga xizmat qiladi.

Makroiqtisodiy barqarorlik: 2025-yilda real YaIM o'sishi 7,7 % ni tashkil etdi, 2026-yilda esa 6,8 % lik o'sish kutilmoqda. Inflyatsiya darajasi 2025-yil yakuniga kelib 7,3 % gacha pasaydi. Ishsizlik darajasi esa 4,8 % gacha kamayishi kuzatildi.

Investitsiya va xususiyl sektor: 2017–2024-yillarda xorijiy to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmi 3 barobarga oshdi. Xususiyl sektorning YaIMdagi ulushi 80 foizdan oshgan bo'lsa, kichik va o'rta biznesning ulushi 56 foizga yetishi kutilmoqda. Biroq, davlat korxonalari hali ham YaIMning 32 foizini tashkil etmoqda, bu esa xususiylashtirishni jadallashtirishni talab qiladi.

Raqamli va IT eksporti: IT mahsulotlar eksporti 2024-yilda 300 million AQSH dollariga yetkazildi, bu 2020-yildagidan 25 barobar ko'pdir. IT Park rezidentlari soni 1 500 taga yetib, 20 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi [7].

Yashil transformatsiya: Elektr energiyasi ishlab chiqarishning 30 foizini qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga qoplash bo'yicha yirik quyosh va shamol stansiyalari barpo etilmoqda. Qishloq xo'jaligida 1 million gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish maqsad qilingan [8].

Shuningdek, Strategiyada inson qadri ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli ta'lim tizimida sifat va qamrov kengaytiriladi, sog'liqni saqlash xizmatlari modernizatsiya qilinadi, aholining ijtimoiyl himoyasi kuchaytiriladi.

Natijada jamiyatda ijtimoiyl adolat va teng imkoniyatlar ta'minlanadi. "Yangi O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyotda juda muhim va tizimli o'zgarishlar kutilmoqda. Bu o'zgarishlar oddiy islohotlardan ko'ra chuqur transformatsiya xarakteriga ega bo'lib, iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qiladi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va 2026-yil prognozlari²

Ko'rsatkich	World Bank	IMF	ADB
2025 real YaIM o'sishi (baholash)	7,7%	7,7%	7,7%
2026-yil real YaIM o'sishi prognozi	6,4%	6,5%	6,7%
2026-yil inflyatsiya prognozi	7,8%	7,0%	6,5%

Yuqoridagi jadvalda ishonchli manbalar asosida O'zbekiston haqida ma'lumotlar tasvirlangan. Agar uchta yirik xalqaro moliyaviyl institut prognozlari bir-biriga yaqin bo'lsa, bu odatda makroiqtisodiy tendensiyalar ancha ravshan va siyosat signallari ishonchli ekanini anglatadi. O'zbekiston holatida aynan shuni ko'ryapmiz: 2026-yil

² Manbalar: World Bank Macro Poverty Outlook, April 2026; IMF country page va 2026 Article IV staff statement; ADB ADO April 2026 country/economy sahifalari [6]



uchun barcha institutlar yuqori, lekin 2025-yildagi juda tez o'sishdan biroz pastroq o'sishni kutmoqda. Bu esa iqtisodiyotning muvozanatli sur'atga o'tishini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Yangi O'zbekiston — 2030" strategiyasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholi turmush darajasini oshirishda yuksak samaradorlik ko'rsatmoqda. Strategiya mamlakatni global iqtisodiyotning raqobatbardosh bo'lagiga aylantirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish uchun quyidagi choralar taklif etiladi:

Xususiylashtirish va korporativ boshqaruv: Raqobat mavjud bo'lgan tarmoqlarda davlat korxonalarini xususiylashtirish bo'yicha shaffof va muddatli "yo'l xaritasi"ni qat'iy amalga oshirish zarur.

Yashil moliya infratuzilmasi: Yashil obligatsiyalar chiqarish va ekologik investitsiya platformalarini yaratish uchun huquqiy bazani takomillashtirish lozim.

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi: Oliy ta'lim muassasalarida "korxona – universitet – ilmiy tashkilot" klaster tizimini rivojlantirish orqali innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish kerak.

Infratuzilma modernizatsiyasi: Elektr va transport tarmoqlarini, xususan, hududlararo yo'l va temir yo'l aloqalarini yangilash biznes xarajatlarini kamaytirishning asosiy omili bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, strategik islohotlarning muvaffaqiyati O'zbekistonning dunyodagi eng innovatsion 60 ta davlat qatoriga kirishini va aholining farovon hayotini ta'minlaydi. "Chunki bilimli avlod — buyuk kelajakning, tadbirkor xalq — farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa — taraqqiyotning kafolatidir!" — dedi davlatimiz rahbari [9]. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, biz bilimli bo'lsak, dunyoni zabt eta olamiz. Yurtimiz iqtisodiy jihatdan gullab-yashnashida aholining savodxonligi juda muhimdir. Shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 2-bo'limi barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash nomli asosiy maqsadga yo'naltirilgan.

FOYDALANAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. https://strategy.uz/index.php?static=strategy_actions&lang=uz
3. Mavlyanov, Z. S. (2025). *2030-yilgacha bo'lgan taraqqiyot strategiyasi doirasida investitsiya siyosatini modernizatsiya qilish va iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini shakllantirish. Empowerment of Youth Intellectual Success*, 1(6), 38.
4. Akhadow, S. S. (2026). *New strategic directions for ensuring Uzbekistan's economic stability and competitiveness: An analysis of the "New Uzbekistan" and "Uzbekistan-2030" programs. Central Asian Journal of Literature, Philosophy, and Culture*, 7(1), 252–255. <https://doi.org/10.51699/cajipc.v7i1.1429>
5. Ravshanova, M. A. (2026). Global integratsiya sharoitida Yangi O'zbekiston iqtisodiy islohotlarining tarixiy o'rni. *Journal of International Scientific Research*, 3(8). <https://spaceknowledge.com>
6. Uzbekistan - Country Economic Memorandum : Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration (English). Washington, D.C. : World Bank Group. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099050625064539607>
7. Sanakulova, I. A. (2025). Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasining iqtisodiy samaradorliklari. *Journal of Universal Science Research*, 3(7), 13.
8. Xakimjanova, A. B. (2025). Yashil iqtisodiyot: O'zbekiston tajribasi va barqaror rivojlanish uchun yo'nalishlar. In "Yashil investitsiyalar va moliyaviy texnologiyalar: O'zbekiston uchun imkoniyatlar va muammolar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami (pp. 235–256). Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti (JIDU)
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/12/07/nutq>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>